

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**F.A.Yuldashev**

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini  
gumanizatsiyalash masalalari ..... 218

**I.A.Asatulloev**

Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili ..... 223

**D.Sh.Sagdullayeva**

Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari ..... 228

**S.S.Sodiqov**

Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari ..... 234

**I.A.Hamdamov**

Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi ..... 240

**H.X.Xakimov**

Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов

Узбекистана в период первого ренессанса ..... 245

**Q.H.Boymirzayev**

Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi  
ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni ..... 252

**B.M.Qandov, N.A.Abduveita**

Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari ..... 256

**E.T.Qalqanov**

Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ..... 261

**Sh.X.Tog'ayev**

Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning  
manbalari va vositalari ..... 266

**I.A.Ikramov**

Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi ..... 272

**V.B.Zayniddinova**

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi ..... 277

**J.M.Miraxmedov**

Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili ..... 281

**B.X.Mirzaraximov**

O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining  
ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari ..... 285

**D.E.Normatova**

Ekzistensializm – hayot falsafasi ..... 293

---

**SIYOSAT****I.A.Raximov**

"Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos  
mexanizmlari" ..... 297

**M.H.Rustamaliyev**

Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi ..... 302

**N.B.Dexkanov**

Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ..... 306

**M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev**

Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi ..... 312

**J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva**

Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish ..... 323

**J.K.Yusubov, D.A.Xusanova**

Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining  
muhim omili ..... 327

---

**TARIX****A.Sharafiddinov**

Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan  
(XIX asr oxiri XX asr boshlari) ..... 331



УО'К: 316.334:172

**VATANPARVARLIK MADANIY HODISA SIFATIDA IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI****СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАТРИОТИЗМА КАК  
КУЛЬТУРНОГО ФЕНОМЕНА****SOCIAL AND PHILOSOPHICAL CHARACTERISTICS OF PATRIOTISM AS A CULTURAL  
PHENOMENON****Qalqanov Eshmatboy Toshpulatovich** Universitiy of science and technologies (USAT Fan va Texnologiyalar universiteti) dotsenti,  
falsafa fanlari nomzodi**Annotatsiya**

*Maqolada har doim ham dolzarb bo'lgan va bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan vatanparvarlikning axloqiy tamoyillari haqida so'z boradi. Vatanparvarlik insonlarning eng qadimgi tuyg'ularidan biri bo'lib, u har doim o'ziga xos tarixiy mazmun va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buning oqibati vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari edi. Vatanparvarlik - ma'lum bir geografik hududda, ma'lum bir jamoa yoki xalq doirasida odamlar ruhiyatida vujudga keladigan, ijtimoiy hayotning barcha sohalari bilan bog'liq bo'lgan etnogenetik, tabiiy huquqiy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy, diniy tuyg'ular. U ijtimoiy ongning bir qator shakllarining atributiv xususiyatlari kiradi va ma'lum e'tiqod va xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Vatanparvarlik o'ziga xos mazmunli yaxlitlikka ega bo'lgan ma'naviy hodisadir. Ana shu nuqtai nazardan maqolada vatanparvarlikning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari yoritilgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются нравственные принципы патриотизма, которые актуальны во все времена и актуальны сегодня. Патриотизм – одно из древнейших чувств людей, во все времена имевшее конкретное историческое содержание и свою специфику. Следствием этого стали национальные и общечеловеческие аспекты патриотизма. Патриотизм – это этногенетические, естественно-правовые, нравственные, экономические и политические, религиозные чувства, связанные со всеми сферами жизни общества, возникающие в психике людей на определенной географической территории, в пределах определенной общности или народа. Оно входит в атрибутивные свойства ряда форм общественного сознания и выступает в качестве координации определенных убеждений и поведения. Патриотизм – духовное явление, имеющее свою содержательную целостность. Именно с этой точки зрения в статье освещаются социально-философские особенности патриотизма.*

**Abstract**

*The article discusses the moral principles of patriotism, which are relevant at all times and are relevant today. Patriotism is one of the most ancient feelings of people, which at all times had a concrete historical content and its own specifics. The consequence of this was the national and universal aspects of patriotism. Patriotism is an ethnogenetic, natural-legal, moral, economic and political, religious feelings associated with all spheres of society's life that arise in the psyche of people on a certain geographical territory, within a certain community or nation. It is included in the attributive properties of a number of forms of social consciousness and acts as a coordination of certain beliefs and behavior. Patriotism is a spiritual phenomenon with its substantial integrity. It is from this point of view that the article highlights the socio-philosophical features of patriotism.*

**Kaliy so'zlar:** vatan, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'usi, vatanga xizmat qilish, vatan ozodligi, vatan mustaqilligi, vatan ravnaqi.

**Ключевые слова:** родина, патриот, любовь к Родине, чувство патриотизма, служение родине, свобода родины, независимость родины, процветание родины.

**Key words:** motherland, patriot, love for the motherland, sense of patriotism, service to the motherland, Freedom of the Motherland, independence of the motherland, prosperity of the Motherland.

**KIRISH**

Vatanparvarlik kishilarning eng qadimiylar davomida sayqal topgan tuyg'ularidan biri bo'lib, hamma vaqt konkret – tarixiy mazmunga, o'ziga xoslikka ega. Buning oqibatida vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari yuzaga kelgan.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi vatanparvarlikka konkret tarixiy mazmun bag'ishladi. O'zbekiston vatanparvarligi sof milliy fazilatgina emas, balki mamlakatimizda yashovchi barcha fuqarolarning tenglik va teng xuquqligi asosida birlashtiruvchi ma'naviy qadriyatdir. Shu bilan birga, bu vatanparvarlik har bir millat vakilida o'ziga xos jihatlarga ham ega bo'ladi. O'zbek xalqining vatanparvarligi bu boshqa xalqlarning manfaatlarini ham hisobga ola bilgan va hurmat qilgan holda barcha xalqlarga, jumladan, o'zbek xalqiga tarixan, ruhan xos bo'lgan ma'naviy fazilatning aynan takrorlanishi emas, balki mustaqilligimiz bilan bog'liq yangi shakl va mazmunda namoyon bo'lgan sadoqatliikdir.

1991-yilning uchinchi choragiga kelib sobiq SSSR davom etgan iqtisodiy depsinishlar va undagi har bir respublikaning uning etakchilari boshchiligidagi mustaqillik uchun kurashlari tufayli parchalandi. Bu sobiq mamlakatning subyekti – kishilarning yangi sun'iy birligi – sovet xalqi o'z o'rnni yangi subyektlar – amalda o'z taqdirini o'zi belgilayotgan kishilar birligining katta shakli – millatlarga bo'shatib berdi. Vatan sarhadlari o'zgardi. Sotsialistik vatanparvarlik tuyg'usi ham yo'qola boshlandi. Aksincha, kishilarda asrlar va yillar mobaynida abadiy ruhiyat – milliy ruhiyat va uning bir qirrasi – milliy vatanparvarlik tuyg'usi faollandi. Chunki sobiq SSSR hududida ham istiqlol uchun kurashlar mobaynida yangi mustaqil mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston xalqi ham jahon arenasidan mustaqil subyekt sifatida o'rinni oldilar. Mazkur holat vatanparvarlik tuyg'usini qayta tahlil qilishni, sovet vatanparvarligi o'rniiga millatlarning o'z-o'zini anglashi asosida yuzaga kelgan O'zbekiston xalqining vatanparvarligini yoshlar ongi va qalbiga singdirishni zarur qilib qo'ydi.

### MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Vatanparvarlik tuyg'usi va uni shakllantirish masalalari bo'yicha sobiq Ittifoq davrida «sovet patriotizmi» qobig'i ostida qator maqola, risola, kitob va dissertatsiyalar yozildi. Vatan – ona-yurt va unga sodiqlikka xos tendensiyalar borki, ular har qanday buzilgan g'oya ostida o'rganilmasin, obyektiv xususiyatlarini saqlab qoladi. Shu sababdan ham biz yaqin o'tmis – kechagi kunimizda yaratilgan g'oyalarni ham vorisiylik doirasida o'rganishga majburmiz. Shu sababdan ham biz bu davr tadqiqotchilarining ijobji ilmiy-nazariy xulosalarini sobiq sovet mafkurasi qobig'idan tozalagan holda foydalandik. Sobiq Ittifoqda kishilarning vatanparvarlik tuyg'usi siyosiy mafkuraviy jihatdan sotsialistik davlat, kommunizmga sodiqlik, kommunistik partiya va uning yo'boshchilariga sodiqlikka bo'ysundirildi.

Vatanparvarlik tuyg'usi sovet fanlarida asosan o'tgan asrning 60 – yillaridan boshlab ishlana boshlandi. Bu boradagi o'sha davr ilmiy tadqiqot ishlarini to'rtta bosqichga bo'lish mumkin. 1-bosqich 1960-yillarda N.I.Gubanov, I.E.Kravsev, P.I.Rogachev, M.A.Sverdin, R.Ya.Mirskiyalar o'z maqola va kitoblarida asosiy e'tiborni vatanparvarlikning sinifiy va siyosiy ma'no-mazmuniga qaratdilar. Bu davrda V.V.Makarov tomonidan «Patriotizm ijtimoiy ong hodisasi sifatida: uning manba va strukturasi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Unda asosiy e'tibor, vatanparvarlik (patriotizm)ning ijtimoiy ong hodisasi ekanligi va tuzilishi masalalariga qaratilgan. Ammo bu tadqiqot ishida ham vatanparvarlik insonnning bioijtimoiy madaniy holati ehtiyojlariga bog'liq holda ijtimoiy ong shakllarining atributiv xususiyati ekanligi asoslab berilmagan. Xalqaro maydonda turli tahdidlar kuchayib borayotgan bir paytda vatanparvarlik va uning ma'naviy-axloqiy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

### NATIJALAR

«Vatan» arabchadan o'zlashgan bo'lib, «ona-yurt» degan ma'noni anglatadi[1, 173]. «Ona – yurt, – deydi V.V.Makarov, - bu insoniyatning sotsial vaqt va makondagi borlig'ining shakli (bo'lib, u) hozirgi zamon sivilizatsiyasi umumjahon-tarixiy xarakteri rivojlanishining doimiy kuchayishida alohida xalqlarning individual taqdirlarida lokalizatsiyalashadi»[2, 10]. «Vatan» – kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiatni, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir etuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi.

«Vatanparvarlik» esa arabcha «vatan» so'ziga forscha-tojikcha-o'zbekcha so'z va qo'shimchalarining qo'shilishidan hosil bo'lib, «o'z vatanini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi» demakdir[1, 174]. Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o'z vataniga muhabbatni va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiyl bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi

## FALSAFA

va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi"<sup>[3, 229]</sup>, -deb to'g'ri ta'kidlaydi. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zлari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

«Patriotizm» so'zi esa grekchadan olingen bo'lib, «vatan», «yurt» va «vatandosh» degan ma'nolarni anglatadi<sup>[4, 484]</sup>. «Ona – yurt va vatanparvarlikning o'zaro aloqadorligiga, - deydi V.V.Makarov, - konkret – tarixiy muayyanlik xosdir; shu bilan birga jamiyatning har qanday tizimida ona – yurt fenomeni tarkib topadiki, shunda sotsial-biologik zamin (muayyan kishilar birligida muayyan sotsial makonda tug'ilishi) sub'ektning u bilan sotsial-emotsional bog'lanishini ta'minlaydi va shaxs va davlat munosabatlарining erishilgan darajadagi monandligi fuqarolarni unga nisbatan munosabati bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri bog'liq qilib qo'yadi»<sup>[2, 11]</sup>.

Vatanparvarlik o'ziga xos tuyg'udir. «Tuyg'u» atamasi lug'at kitoblarda shunday izohlanadi: 1.Tashqi ta'sirni sezish, his etish, qabul qilib olish qobiliyati; sezgi. 2.Ruhiy yoki jismoniy kechinmalar, his-tuyg'ular majmuyi; his-tuyg'u, his-hissiyot. 3.Ko'tarinki ruh; ehtiros»<sup>[1, 221]</sup>. Demak, tuyg'u ruhiyatga, xususan, inson ongiga xos hodisa. Inson ongi ijtimoiyidir, ya'ni jamoaviy, jamiyatda yuzaga kelgan. Ijtimoiy ong madaniyidir, demak, uning atributiv qirralaridan biri – vatanparvarlik ham madaniyidir, ya'ni unga e'tiqod va xatti-harakat birligi sifatida onglilik va maqsadga muvofiglik xosdir. «Ajdodlarimizning, - deydi O'.Abilov, - eng bahodir, eng pahlovon, eng yovqur vakillarini vatanparvarlik tuyg'usi jasoratga undadi. Xalqimizni turli suronlardan, turli bosqinlardan omon saqlab qolgan, millat sifatida shakkantirgan, ulg'aytirgan, biriktirgan tuyg'u ham vatanparvarlik tuyg'usidir»<sup>[5, 137-138]</sup>.

Vatanparvarlik tuyg'usini ma'naviy-madaniy hodisa sifatida o'rganar ekanmiz, e'tiborni madaniyat tushunchasining e'timologik mazmuniga qaratamiz. «Madaniyat» arab tilida «shahar», «kent» ma'nolarini anglatadi. «Arablar, - deb yozishadi «Vatan tuyg'usi» kitobi mualliflari, - kishilar hayotini ikki turga bo'lib, birini badaviy yoki sahroiy turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik – bu ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharda o'troq yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatalgan»<sup>[6, 114-115]</sup>. «Kultura» so'zi lotinchada «yerga ishlov bermoq», «yetishtirmoq», «tarbiyalash», «yaratish», «rivojlanish», «qadrlash» degan ma'nolarni bildiradi. Ammo o'zbek tilida chop etilgan ilmiy adabiyotlarda «madaniyat» tushunchasi «kultura» tushunchasi bilan bir xil ma'no-mazmunda ishlatalib kelinmoqda. L.E.Kertman madaniyat tushunchasiga 500 dan ortiq ta'rif berilganligini aniqlagan [7, 14]. «Madaniyat» (kultura) tushunchasiga berilgan ta'rif-tavsiflar bir qator tadqiqotchilar tomonidan turkumlashtirilgan va ular oltita yo'nalishdan iboratligi aniqlangan. Bu nazariy yo'nalishlardan biri madaniyatni tabiatdan farqlash uchun inson tomonidan yaratilgan buyum va munosabatlarni bildiruvchi tarixiy tushunishdir. Insoniyat madaniyat deganda ilk bora o'zлari ishlov berib yaratgan, tabiat yaratmagan buyumlarni tushungan. Demak, jamiyatning asosi madaniyat, jumladan, moddiy madaniyat hisoblanadi. Demak, vatanparvarlik ham ishlov berish, tarbiya mahsulidir. Ammo bu yo'nalish vakillari<sup>[8]</sup> madaniyat borliqning bir qismi ekanligini, uning strukturasi va unga bog'liq holda ijtimoiy jarayonlar kelib chiqishini ko'rsatib bermaganlar.

Madaniyatni tushunish bo'yicha ikkinchi yo'nalish – uni qadriyatlar deb tushunishdir<sup>[9]</sup>. Ammo qadriyatlar «ahamiyatlilik» ekan, u nafaqat inson tomonidan yaratilgan buyum, narsa va so'zlardan iborat, balki shu bilan birga tabiiy ne'matlarni ham o'z ichiga oladi. Bu birinchidan. Ikkinchidan, madaniy hodisalarining hammasi birvarakayiga hamma xalqlar uchun qadrli bo'lavermaydi. Bironta xalq uchun qadrli bo'lgan madaniyat hodisalarini ikkinchi xalq uchun qadrli bo'lmasisligi mumkin. Shuning kabi O'zbekiston xalqining mustaqillikni himoya qilishdan iborat vatanparvarligi imperiyacha, buyuk davlatchilik shovinizmi ruhida fikrlaydiganlar uchun qadriyat bo'la olmaydi.

Madaniyatni tushunishga oid uchinchi yo'nalishga ko'ra madaniyat bu insonning ijodiy faoliyatidir. Madaniyat, - deydi E.A.Biller va N.S.Zlobinlar, - bu qadriyatlarni o'zlashtirish va moddiylashtirishga asoslangan kishilarning ijodiy faoliyatining o'zginasidir<sup>[10]</sup>. Mazkur faoliyatli yondashishni O'zbekiston Faylasuflar milliy jamiyatni orqali nashr ettirilgan falsafa bo'yicha qomusiy lug'atda ham uchratamiz. «Madaniyat, - deyiladi «Falsafa: qomusiy lug'ati»da, - (arab. – madinalik, shaharlik, ta'lif-tarbiya ko'rgan) – tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli»<sup>[11, 230]</sup>. To'g'ri, ijodiy faoliyatsiz madaniy hodisalar va ularni o'zlashtirish yuz bermaydi. Ammo ijodiy faoliyat madaniyatning barcha qismini emas, balki mavjudlik usulini qamrab

oladi. Xuddi shunday vatanparvarlik kishilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va tarbiyalash usullari bilan cheklanmaydi. Vatanparvarlik uning natijalari – fidokorona mehnat va jasoratni ham o'z ichiga oladi.

Madaniyatni tushunishga oid to'rtinchi, ilmiy adabiyotlarda eng keng tarqalgan yo'naliishga ko'ra, madaniyat kishilarning tarixan tarkib topgan his-tuyg'u, tajriba, g'oya va bilimlari yig'indisi hamda ularning texnika, maishiy xizmat, xalq ta'llimi, fan, san'at asarlari kabilarda mustahkamlanishi va moddiylashivudir[12, 346]. «Madaniyat, - deydi faylasuf olim Q.Nazarov, - inson bilimlari, ko'nikma va tajribalarini, ma'haviy salohiyatini hamda amaliy faoliyati jarayonida inson ideallarining ro'yobga chiqishi va shaxs sifatida kamol topishi jarayonini o'zida aks ettiradi»[13, 258]. Agar ushbu yondashishni vatanparvarlik uchun qo'llasak, u Vatanni anglash va uning obyektlashuvi bo'lib chiqadi. Mazkur obyektivlashish esa ijtimoiy foydali mehnat va jasoratdagi ona-yurtga sodiqlikdir. Ammo, bizningcha, madaniyatga mazkur yondashishda vatanparvarlikning ontologik mohiyati, ya'ni ishlov berilganlik to'liq qamrab olinmagan.

Madaniyatni tushunishga oid beshinchi yo'naliish tarafdarlari esa madaniyat deganda insonning rivojlanganlik va ma'naviy barkamollik darajasini tushunadilar[14]. «Madaniyat, - deydi D.R.Kenjayeva, - insoniyatning o'z taraqqiyoti davomida erishilgan, ibtidoiy darajadagi birinchi tabiiy holatidan intellekt (aql-idrok), dunyoqarash va mehnat faoliyati jihatidan, fan va texnika, iqtisod, siyosat, huquq, ma'haviyat sohalarida etuklik holatlariiga o'tishining ijtimoiy-tarixiy va tadrijiy jarayonidir»[15, 14]. Madaniyatni bunday tushunish madaniyatni uning subyekti bilan tenglashtirib qo'yadi. Agar ushbu tushunishni vatanparvarlik uchun qo'llasak, u unda vatanparvarlikning sub'ekti bilan aynanlashib qoladi, vatanparvarlik – fidoiy mehnat va jasorat natijalari diqqat-e'tibordan chetda qoladi.

Madaniyatni tushunishga oid oltinchi yo'naliishga muvofiq, madaniyat jamiyatning har bir muayyan tarixiy davrlaridagi muayyan sifat holatidir[16]. Bu tushunishni vatanparvarlik hodisasi uchun qo'llasak, vatanparvarlik ona-yurtga sodiqlikning sifatiy holati bo'lib chiqadi. Madaniyatni ushbu tushunish jamiyatlar, madaniyatlar, jumladan, vatanparvarlik hodisalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Ammo madaniyatni bunday tushunish uning, shu jumladan, vatanparvarlikning mavjudlik mohiyatini emas, balki funksional holatlarini bilishga yordam beradi.

### MUHOKAMA

Madaniyatni tushunish borasidagi barcha yuqoridagi ko'rsatilgan yo'naliish – qarashlarda madaniyatning nobiologik xarakteri va uning inson ongisiz yuz bermasligi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotchilar ko'rsatganidek, madaniyat sistemasiga «qadriyat» va «sifat» tushunchalarining kiritilishi esa «madaniy qadriyatlar» va jamiyat va shaxsnинг rivojlanganlik darajasini aniqlash yo'llarini ko'rsatib berdi. Ammo madaniyatni tushunish sohasidagi ushbu yo'naliishlarda madaniyatning mavjudlik – korrelyasion-funksional va rivojlanish-substansional, universal, strukturaviy va determinatsion qonuniyatlarini yoritib berilmagan. Madaniyat sohasidagi nazariy tadqiqotning bunday holati va cheklanganligi tabiiy edi. Chunki madaniyatni tushunish borasidagi nazariy ishlar tarixni materialistik tushunishga asoslangan edi. Sotsialistik vatanparvarlik xuddi ushbu tushunishdan keltirib chiqarilgan edi. Shuning uchun ham madaniyatni ontologik, funksional va tarixiy aspektlarda jamiyatning asosi sifatida bilish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi va bu borada muayyan ilmiy natijalarga erishildi. Madaniyatni jamiyatning yadrosi-asosi-substansiysi sifatida tushunish hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda tarixni dialektik madaniy tushunish deb yuritilmoqda. Madaniy hodisalarini bilishda uning ontologik mohiyatini aniqlab olish muhimdir. "Kultura" so'zi «ishlov berish», «parvarishlash», «tarbiyalash» degan ma'nolarni bildiradi. Biz "kultura" so'zining o'rniga arab tilidan kirib kelgan "madaniyat" terminini ishlatamiz. "Madaniyat" arabchada "shaharga oid", "ma'rifikatga oid" degan ma'nolarni beradi. Biz "madaniyat" tushunchasini "kultura" ma'nosida ishlatdik. Demak, kishilar kultura, ya'ni madaniyat tushunchasini o'zları ishlov berib yaratgan buyumlarni tabiiy buyumlardan ajratish uchun ishlatgan. «Ishlov berish» inson faoliyatidir. U madaniyatning ontologik mohiyatini ifodalaydi. «Ishlov berish» jamiyatning barcha sferalarining atributi, ya'ni zaruriy, ajralmas xususiyati hisoblanadi. «Parvarishlash», «tarbiyalash» so'zları esa "ishlov berish" terminini to'ldirib keladi. Madaniyat ontologik aspekt bo'yicha insonlar tomonidan yaratilgan borliqdir. Biz uni shartli ravishda "madaniy borliq" deb ataymiz. Bu mantiqiy xulosa tarixni dialektik madaniy tushunish bo'yicha yuzaga kelgan madaniyatni tushunish sohasidagi ettingchi yo'naliishdir. Agar ushbu tushunishni vatanparvarlik jarayoniga qo'llasak, u kishilarning ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi faoliyatlarida yuzaga kelgan ona-yurtga sodiqlikni ifodalovchi his-tuyg'u, g'oya, munosabatlari va ularning natijalaridir. Demak, borliq tabiiy va sotsial – ijtimoiy,

## FALSAFA

ya'ni jamiyat ma'nosidagi borliqlardan iborat. Ijtimoiy borliq, ya'ni jamiyatning asosi va tarkibiy qismini madaniyat, ya'ni borliqning tarkibiy qismi – madaniy borliq tashkil etadi. «Insoniyat, - deb yozadilar X.T.Odilqoriev va Sh.F.Foyibnazarov, - o'zining bir necha million yillik tarixini ortda qoldirib, XXI asrغا qadam qo'ydi. Ana shu yillar davomida insonning axloqiy-ma'naviy kamoloti tinimsiz mehnat tufayli moddiy madaniyatning ilk namunasi bo'lgan «oddiy tosh cho'qmor»dan hozirgi zamoning mo'jizaviy o'ta murakkab texnik qurilmalarigacha bo'lgan davrda yaratilgan barcha narsalarni qamrab oluvchi va madaniy borliq deb ataluvchi tizimni yaratdi.

Bu madaniy borliq butun insoniyatning qo'li, aql-zakovati bilan ishlov berish, parvarishlash, tarbiyalash, ma'rifat va ma'naviyat zaminida yaratilgan barcha moddiy ne'matlar va ularning in'ikosi bo'lgan ma'naviyat olamining jahon madaniyati deb atalmish bir butun yig'indisidir»[17, 9].

Jamiyat madaniy borliqsiz mavjud bo'la olmaydi. Uning xilma-xilligi sivilizatsiyalar xilma-xilligini belgilab beradi.

«Men umuminsoniy qadriyatlar rivojini har bir xalq madaniyati va o'ziga xosligining o'zaro uyg'unlashuvida deb bilaman. Madaniyatlarning shu tarzdagi uyg'unlashuvigina umuminsoniy madaniyat va butun sivilizatsyaning go'zalligi va qadr-qimmatini yaratadi. Zero, umumiy sivilizatsiya turli xalqlarning madaniyatlaridan shakllanadi».

## XULOSA

Demak, vatanparvarlik faqat axloqiy yoki siyosiy ongga xos xususiyat bo'lmasdan, balki shu bilan birga ijtimoiy ongning barcha sohalariga xos ajralmas xususiyat – atributdir. «Vatanparvarlik – bu jamiyat ma'naviy hayotining murakkab, bir xil ma'noga ega bo'Imagan hodisasisidir, qaysiki ongning siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik shakllarida xilma-xil (ba'zi muqobil) ifodalaydigan va ayni vaqtida ularni muayyan birlikka tegishli, insoniyatning umumjahon tarixiy borlig'ini anglashining borishida ishora belgisi bo'lib chiquvchi ommaviy ongning integrativ holati sifatida birlashtiradi». Ammo vatanparvarlik ijtimoiy obyektlar va manfaatlarga bog'liq holda o'ziga xos jihatlar bilan farqlanadi. Uning negizida shaxs va millatning erkinlikka intilishi yotadi. Tadbirkorning ham, o'qituvchining ham, chegarachining ham, yetakchining ham ona-yurt ozodligi, tinchligi, farovonligi uchun fidoyiligi va jasorati vatanparvarlikning ko'rinishlaridandir. Vatan tuyg'usi – ajdodlarimizning Vatan deya, uning ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilganliklarini, jabr-sitam, zulm-istibdodga uchraganliklarini yod etish, mustaqillik, ozod va obod Vatanimizga yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqadli bo'lishdir.

Fuqarolarimiz, xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy ongning barcha shakllarining amaliy ko'rinishlari – tarixiy, siyosiy va huquqiy tarbiya, falsafiy va diniy tarbiya, axloqiy va estetik tarbiya, tabiiy-ilmiy va iqtisodiy tarbiyada milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligi o'z ifodasini topishi kerak. Ushbu tarbiya va ularni amalga oshirish mexanizmi va vositalarining esa yoshlar va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda o'z o'rinnlari bor. Bu holatlar yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ma'naviy determinantlar vazifalarini bajaradilar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. – Moskva: «Rus tili» nashriyoti, 1981. – B. 173.
2. Макаров В.В. Патриотизм как философская проблема. Автореф. ... докт. филос. наук. – М., 1990. – С. 10.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Tom 1. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. – B.229.
4. Философский энциклопедический словарь. – М.: «Советская энциклопедия», 1983. – Б. 484.
5. Abilov O. O'zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi. – Т.: «Istiqlol» nashriyoti, 2003. – В. 137-138.
6. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – Т.: «O'zbekiston», 1996. – В. 114-115.
7. Kertman L.E. Istoriya kultury Evropy i Ameriki (1870-1917 g.g.) – М., 1987. – С. 14.
8. Зворикин А.А. Определение культуры и место материальной культуры в общей культуре. – М., 1964.
9. Проблемы социалистической культуры: научно-аналитический обзор. – М., 1981.
10. Биллер Э.А., Злобин Н.С. Народ и культура. // В сб.: «Культура, творчество, человек». – М.: 1970 – Б. 36; Ким В.В. Социално-философский анализ структуры культуры. Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Т., 1993. ва бошқалар.
11. Falsaфа: qomusiy lug'at. – Т.: «Sharq», 2004. – В. 230.
12. Чесноков Д.И. Исторический материализм. – М.: 1965. – Б. 346.
13. Nazarov Q. Madaniyat falsafasi. O'zbekistonning sivilizatsiyalashgan taraqqiyoti. – Т.: O'AJBNT markazi, 2000. – В. 258.
14. Ковалозон М.Я. Место понятия «культуры» в системе категорий исторического материализма. – Барнаул. 1976; Культура – человек – философия: к проблеме интегратции и развития. // «Вопросы философии», 1982. №1.
15. Kenjaeva D.R. Madaniyatning tarbiyaviy funksiyasi va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fals. fan. nom. ... diss. avtoreferati. – Т., 1999. – В. 14.
16. Уледов А.К. К определению специфики культуры как спектрального явления // «Философские науки», 1974. №2 и др.
17. Odilqoriev X.T., Foyibnazarov SH.F. Siyosiy madaniyat: nazariy-qiyosiy tadqiqot. – Т., 2004. – В. 9.